

2. Celce-Murcia, M., Brinton, D. M., & Snow, M. A. (2014). Teaching English as a Second or Foreign Language (4th ed.). Boston: Heinle Cengage.
3. Cohen, A. D. (2014). Strategies in Learning and Using a Second Language. London: Routledge.
4. Ellis, R. (2003). Task-Based Language Learning and Teaching. Oxford: Oxford University Press.
5. Ellis, R., & Shintani, N. (2014). Exploring Language Pedagogy Through Second Language Acquisition Research. London: Routledge.
6. Hatch, E., & Brown, C. (1995). Vocabulary, Semantics, and Language Education. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Krashen, S. D. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Oxford: Pergamon Press.
8. Little, D. (1999). Learner Autonomy in Language Learning: Defining the Field and Setting the Agenda. Dublin: Authentik.
9. Laufer, B., & Goldstein, Z. (2004). Vocabulary Acquisition in a Second Language: Do Learners Really Acquire Most Vocabulary by Reading? Some Practical Applications. Applied Linguistics, 25(2), 117–134.
10. Gass, S. M., & Selinker, L. (2008). Second Language Acquisition: An Introductory Course (3rd ed.). New York: Routledge.

Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna – Farg‘ona davlat universiteti Maktabgacha ta‘lim kafedrasida o‘qituvchisi **E-mail:** yorqinoy986@gmail.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2348-6096>



BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING KASBIY MAHORATINI SMART TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH METODIKASINING HOZIRGI KUNDAGI ZARURIY AHAMIYATI

<https://zenodo.org/records/19877585>

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda bo‘lajak boshlang‘ich sinif o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini smart-texnologiyalar asosida shakllantirish metodikasining dolzarb ahamiyatini yoritishga bag‘ishlangan. Zamonaviy ta‘lim jarayonida raqamli texnologiyalar, interaktiv platformalar va innovatsion pedagogik yondashuvlardan samarali foydalanish o‘qituvchining kasbiy kompetentligini belgilovchi muhim omilga aylanib bormoqda. Xususan, YUNESKO va YUNISEF tomonidan ilgari surilayotgan raqamli ta‘lim strategiyalarida ham pedagog kadrlarni tayyorlashda smart-texnologiyalarni integratsiya qilish zarurligi ta‘kidlanadi. Annotatsiyada o‘qituvchilarning metodik, axborot-kommunikativ va kreativ kompetensiyalarini smart-texnologiyalar asosida rivojlantirishning nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ta‘lim jarayoniga innovatsion

yondashuvlarni joriy etish orqali boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: smart texnologiyalar, kasbiy mahorat, boshlang'ich ta'lim, raqamli kompetensiya, innovatsion pedagogika.

Annotation: This annotation highlights the contemporary significance of developing the professional competence of future primary school teachers through smart technologies. In the context of educational digitalization, the effective use of digital tools, interactive platforms, and innovative pedagogical approaches has become a key indicator of teachers' professional skills. International organizations such as UNESCO and UNICEF emphasize the importance of integrating digital technologies into teacher training systems. The annotation analyzes both theoretical and practical aspects of enhancing methodological, information-communication, and creative competencies of future teachers based on smart technologies, and substantiates their role in improving the quality of primary education.

Keywords: smart technologies, professional mastery, primary education, digital competence, innovative pedagogy.

Аннотация: Данная аннотация посвящена раскрытию актуальной значимости методики формирования профессионального мастерства будущих учителей начальных классов на основе smart-технологий. В условиях цифровизации образования использование интерактивных платформ, цифровых инструментов и инновационных педагогических подходов становится важнейшим фактором профессиональной компетентности педагога. Международные организации, такие как UNESCO и UNICEF, подчеркивают необходимость интеграции цифровых технологий в систему подготовки педагогических кадров. В аннотации анализируются теоретические и практические аспекты развития методической, информационно-коммуникативной и креативной компетенций будущих учителей на основе smart-технологий, а также обосновывается их роль в повышении качества начального образования.

Ключевые слова: smart-технологии, профессиональное мастерство, начальное образование, цифровые компетенции, инновационная педагогика

KIRISH

Globalashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari jadal kechayotgan hozirgi davrda ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarmoqda. Zamonaviy jamiyat innovatsion fikrlaydigan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalana oladigan, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega yosh avlodni tarbiyalashni talab qilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini yangi pedagogik yondashuvlar va smart-texnologiyalar asosida shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bugungi kunda jahon miqyosida ta'limni raqamlashtirish jarayonlari keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Xususan, YUNESKO tomonidan ilgari surilgan raqamli ta'limni rivojlantirish konsepsiyalari hamda YUNISEF tashabbuslarida ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish va pedagog kadrlarning raqamli kompetentligini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur jarayonlar milliy ta'lim tizimimizda ham o'z aksini topib, pedagoglarni tayyorlash jarayoniga zamonaviy smart-vositalarni integratsiya qilishni taqozo etmoqda.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxs rivojlanishining poydevori hisoblanadi. Aynan shu davrda o'quvchilarda bilish faolligi, mustaqil fikrlash, axborotni idrok etish va qayta ishlash ko'nikmalari shakllanadi. Shu bois boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy mahorati nafaqat metodik bilimlarga, balki raqamli savodxonlik, kreativlik, innovatsion faoliyatga tayyorlik kabi kompetensiyalarga ham tayanishi lozim. Intellectual texnologiyalar (interfaol doskalar, raqamli ta'lim platformalari, mobil ilovalar, sun'iy intellektga asoslangan o'qitish vositalari va boshqalar) ta'lim jarayonini individuallashtirish, tabaqalashtirish va uning samaradorligini oshirish imkonini beradi. Ular o'qituvchiga ta'lim jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish va baholashda yangi metodik imkoniyatlar yaratadi. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini smart-texnologiyalar asosida shakllantirish metodikasini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb pedagogik muammolaridan biridir. Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini smart-texnologiyalar asosida shakllantirishning mazmuni, tamoyillari, metodik shart-sharoitlari, shuningdek, uning ta'lim sifati va samaradorligiga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Demak, ta'lim tizimi oldida:

- smart texnologiyalarni o'qituvchi tayyorlash jarayoniga metodik jihatdan joriy etish;
- bo'lajak pedagoglar kompetensiyasini zamonaviy raqamli talablarga moslashtirish;
- raqamli ta'lim muhitini boshqara oladigan pedagog kadrlar tayyorlash vazifalari turibdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

“Aqlli ta'lim” (Smart education) konsepsiyasi dastlab Koreya, Singapur va Yaponiya ta'lim tizimida shakllangan. “Smart education” — bu asosiy e'tibor interaktivlik, individual yondashuv va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishga qaratilgan ta'lim modelidir. Trilling va Fadel (2009) XXI asr kompetensiyalarini raqamli savodxonlik, kreativ fikrlash, kommunikatsiya va hamkorlik asosida izohlaydi. UNESCO (2018) esa o'qituvchining raqamli kompetensiyalarini ta'lim sifatining kafolati sifatida ko'rsatadi. D.Hojiyeva, M.Hasanov, S.Abdullayev kabi tadqiqotchilar boshlang'ich ta'lim jarayonida AKT-kompetensiyalarni rivojlantirish, interaktiv platformalar orqali o'qitishni takomillashtirish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan. Tahlil natijasida smart-texnologiyalar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga quyidagi yo'nalishlarda ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi:

- ta'lim sifati oshirish;
- o'qituvchi-o'quvchi o'zaro hamkorligini kuchaytirish;
- o'quv materialini vizuallashtirish;
- mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- darsning kreativ dizaynini shakllantirish.

Tadqiqot jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini smart-texnologiyalar asosida shakllantirish bo'yicha ishlab chiqilgan metodikaning ilmiy asoslanganligini ta'minlash maqsadida bir qator kompleks ilmiy metodlardan foydalanildi. Dastlab nazariy-metodik tahlil o'tkazildi. Bu bosqichda smart-texnologiyalar, raqamli pedagogika, AKT-kompetensiyalar, smart-ta'lim muhitlari va zamonaviy o'qituvchi

modeliga bag'ishlangan 40 dan ortiq mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar, maqolalar, monografiyalar, raqamli ta'lim bo'yicha xalqaro tashkilotlar (UNESCO, OECD) hisobotlari batafsil o'rganib chiqildi. Adabiyotlarni chuqur tahlil qilish tadqiqotning nazariy asoslarini aniqlashga, mavjud ilmiy qarashlarni tizimlashtirishga va smart-texnologiyalar kompetensiyalari modeli asosida metodik yo'nalishlarni belgilab olishga imkon berdi. Keyingi bosqichda pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan 120 nafar talabaning raqamli savodxonlik bo'yicha boshlang'ich darajasi diagnostika va anketa so'rovi metodlari yordamida aniqlandi. Diagnostika jarayonida raqamli platformalardan foydalanishga oid anketalar, testlar, amaliy topshiriqlar va kuzatuv mezonlaridan foydalanildi. So'rov natijalari talabalarning smart-texnologiyalarga munosabati, ulardan foydalanish davriyligi, motivatsiya darajasi va o'z-o'zini baholashi kabi ko'rsatkichlarni aniqlashga yordam berdi. Bu esa tajriba uchun boshlang'ich kompetensiyalarni belgilab olish imkonini yaratdi. Tadqiqot metodlarining markaziy qismi sanalgan pedagogik tajriba ikki bosqichda tashkil etildi. Nazorat guruhi an'anaviy o'qitish metodlari asosida o'qitildi, ya'ni ular asosan darslik, ma'ruza, suhbat, amaliy mashg'ulotlarning klassik shakllaridan foydalandi. Tajriba guruhi esa smart-texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan metodika bo'yicha o'qitildi. Bu jarayonda Moodle, Google Classroom, Edmodo, Quizizz, Jamboard, Padlet, Canva kabi interfaol ta'lim platformalaridan foydalanildi. Shuningdek, smart-dars ssenariylari, multimedia materiallari, geymifikatsiya elementlari, mobil ta'lim ilovalari hamda masofaviy va aralash ta'lim metodlari joriy etildi. Tajriba davomida talabalar faol ishtirok etish, mustaqil kontent yaratish, elektron darsni loyihalash, guruhda onlayn hamkorlik qilish kabi amaliy faoliyat bilan shug'ullandi. Tadqiqot natijalarini ishonchli tahlil qilish uchun statistik metodlar qo'llanildi. Talabalarning bilim va ko'nikmalaridagi o'zgarishlarni aniqlash maqsadida olingan ma'lumotlar Microsoft Excel va SPSS dasturlari yordamida qayta ishlandi, foiz ko'rsatkichlari, o'sish dinamikasi hisoblandi, farqlarni aniqlash uchun qiyosiy diagrammalar, jadval tahlili va dispersiya ko'rsatkichlari tuzildi. Tajriba va nazorat guruhlarini o'rtasidagi farqlarni statistik jihatdan asoslash orqali metodikaning samaradorligi ilmiy jihatdan tasdiqlandi. Umuman olganda, kompleks yondashuv asosida qo'llanilgan metodlar tadqiqotning ishonchligi, obyektivligi va ilmiy aniqligini ta'minladi. Tahlil, diagnostika, tajriba va statistik qayta ishlash birgalikda o'qituvchining kasbiy mahoratini smart-texnologiyalar asosida rivojlantirishning ilmiy asoslangan modelini shakllantirishga xizmat qildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tajribaviy tadqiqot davomida smart-texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning kasbiy mahorati va raqamli kompetensiyalarini sezilarli darajada oshirishi namoyon bo'ldi. Dastlabki tashxis natijalariga ko'ra, talabalarda raqamli savodxonlik, elektron o'quv materiallarini yaratish va interaktiv platformalarda ishlash ko'nikmalari yetarlicha shakllanmaganligi aniqlangan edi. Biroq pedagogik tajriba va smart-metodik yondashuvlar joriy etilgach, tajriba guruhidagi talabalarning raqamli savodxonligi 34 foizdan 81 foizga, elektron dars ishlanmalarini yaratish ko'nikmalari 28 foizdan 77 foizga, interfaol platformalarda (LMS, kollaborativ va baholash vositalari) ishlash ko'rsatkichi esa

31 foizdan 85 foizga oshdi. Bu raqamlar metodikaning samaradorligini hamda raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda ijobiy natijaga erishilganini aks ettiradi. Aqlli platformalar va raqamli vositalardan foydalanish jarayonida talabalar quyidagi vositalardan muvaffaqiyatli foydalandilar: kurslarni tashkil etish va boshqarish uchun ta'limni boshqarish tizimlari sifatida Moodle, Edmodo, Google Classroom; hamkorlikka asoslangan interaktiv muhit yaratish uchun Jamboard, Padlet; baholash, test va shartli mashg'ulotlar uchun Kahoot!, Quizizz; taqdimotlar, vizual kontent va o'quv materiallarini tayyorlashda Canva, Prezi kabi vositalar; shuningdek, AR/VR va multimedia komponentlariga asoslangan vizual-eksperimental elementlar. Ushbu vositalarning uyg'unligi pedagogik jarayonni interfaol, ko'rgazmali va jozibador qildi, talabalarda esa kreativlik, tahliliy va tanqidiy fikrlash, shuningdek, kommunikativ va kooperativ ko'nikmalar rivojlandi. Bu holat ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan raqamli pedagogikaning samaradorligi konsepsiyasini ham tasdiqlaydi. Canva, Prezi taqdimotlar, vizual kontent va o'quv materiallarini tayyorlashda; shuningdek, AR/VR va multimedia komponentlariga asoslangan vizual-eksperimental elementlardan foydalangan. Ushbu vositalarning uyg'unlashuvi pedagogik jarayonni interfaol, ko'rgazmali va jozibador qildi, talabalarda ijodkorlik, tahliliy va tanqidiy fikrlash, muloqot va hamkorlik ko'nikmalari rivojlandi.

Dars dizaynida ham sezilarli innovatsiyalar kuzatildi. Tajriba guruhi tomonidan ishlab chiqilgan darslar geymifikatsiya elementlari, multimedia kontenti, interfaol va individual yondashuvni qamrab olgan holda tashkil etildi. Natijada mashg'ulotlar nafaqat an'anaviy ma'ruza va amaliyot shaklida, balki o'yin, loyiha, interaktiv va shaxsiylashtirilgan trayektoriyalar bo'yicha ham olib borildi. Bu sharoitlar talabalarning motivatsiyasi, mustaqilligi va ijodiy faolligini oshirib, pedagogik ijodkorlikni hamda darslarni rejalashtirishga innovatsion yondashuvlarni rivojlantirdi.

Ushbu natijalarga asoslangan muhokama bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayoniga smart-texnologiyalarni integratsiya qilish zarur va maqsadga muvofiq ekanini ko'rsatadi. Raqamli kompetensiyalar maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun shunchaki qo'shimcha ko'nikma emas, balki ularning kasbiy mahoratining ajralmas qismidir. Aqlli vositalardan pedagogik maqsadlarda foydalana olish qobiliyati o'quv jarayonini moslashuvchan, individual, interfaol va sifatli qiladi. Bundan tashqari, raqamli platformalar, multimedia va geymifikatsiya elementlaridan foydalanish darsni jozibador qilib, o'quvchilar motivatsiyasini oshiradi, o'qituvchilarga esa ijodiy va dizaynerlik yondashuvini rivojlantirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, muhokamada ayrim ehtiyot choralari ham ko'zda tutilgan. Raqamli vositalar va platformalarning samaradorligi ularning pedagogik maqsadlarda va metodik asosda to'g'ri qo'llanilishiga bog'liq. Faqat texnologiyalarning o'zi yetarli emas – raqamli pedagogika va o'qituvchining metodik savodxonligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, texnik jihatlar, internet va qurilmalar bilan ta'minot mustahkam bo'lishi lozim. Ayrim adabiyotlarda raqamli pedagogikani joriy etishda hududlararo nomutanosiblik va resurslar tanqisligi muammolari ham alohida ta'kidlanadi.

Umuman olganda, tajriba natijalari va adabiyotlar tahlili bir-biriga zid emas – ular aqlli metodik yondashuvning talabalar va bo'lajak pedagoglarni tayyorlashga ijobiy ta'sirini ilmiy

jihattan ko'rsatib bermoqda. Shu sababli, ta'lim jarayoniga smart-texnologiyalarga asoslangan pedagogik metodlarni keng joriy etish tavsiya qilinadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko'ra, smart-texnologiyalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Ular:

- dars samaradorligini oshiradi;
- o'quv materialining tushunarli bo'lishini ta'minlaydi;
- o'qituvchining ijodkorligini kuchaytiradi;
- raqamli kompetensiyalarni rivojlantiradi;
- uzluksiz ta'lim tizimini yaratadi.

Kelajakda smart-texnologiyalarni AR/VR, sun'iy intellekt, adaptiv ta'lim tizimlari bilan boyitish hamda bu jarayonni amaliyotga keng joriy etish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'ofurova M. Pedagogik kompetentlikni shakllantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati // Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnal. — 2025. maktabgacha-va-maktab-talimi-jurnal.uz
2. O.Zulfiqorova. Raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda pedagogning roli // Ustozlar uchun. — 2025. journalss.org
3. Z.M.Buzurxonova. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalar // PEDAGOGS International Research Journal. — 2025.
4. Z.S.Xurramova Pedagogik ta'lim jarayonida o'qituvchining zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishi // Yangi O'zbekiston, Yangi Tadqiqotlar Jurnal. — 2025. phoenixpublication.net
5. Asamova S. X. O'quvchilarga zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim berish, ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish // Pedagogik Tadqiqotlar Jurnal. — 2025.
6. Yorqinoy Kipchakova The importance of artificial intelligence in developing professional knowledge of future educators Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 11 (2024) / ISSN 2181-1415,45-50-b
7. Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini Smart texnologiyalar asosida shakllantirish" Namangan Davlat Universiteti Ilmiy Axborotnomasi (2024-10)ISSN:2181-1458.C.918-921
8. Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna "Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratlarini SMART-texnologiyalari asosida shakllantirish metodikasi." Qo'qon DPI Ilmiy xabarlar,2025- yil,2-son,1007-10009-b
9. Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna "Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda Smart -texnologiyalarini qo'llashning xususiyatlari"Qo'qon DPI Ilmiy xabarlar,2025- yil,1- son,461-465-b

10. Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy mahoratlari tushunchasi JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581 - 4230 VOLUME 12, ISSUE 2, February – 2025,60-63-b
11. Yorqinoy Qipchaqova Hamidjonovna THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS IMPACT FACTOR
12. Yorqinoy Kipchakova .Peculiarities of attracting pupils of the preparatory group to books in preschool educational organizations Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 11 (2024) / ISSN 2181-1415,C.270-273-b
13. Y.Qipchaqova ''Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahorati Smart texnologiyalar asosida shakllantirish'' Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda buyuk siymolarni pedagogic qarashlari asosida aksiologik kompetentlikni shakllantirish mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 2025-yil 4-aprel .C.240-242.
14. Y.Qipchaqova Ta'limda Smart texnologiyalardan foydalanish. Farg'ona Davlat Universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish mintaqaviy markazi . '' Transformatsiyalash sharoitida pedagog kadrlar salohiyatini malaka oshirish tizimi orqali takomillashtirish: muammo va yechimlar''2025-yil 21-iyun C.177-179
15. Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna Smart texnologiyalar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy mahorati shakllantirish modeli.Maktabgacha va maktab ta'limi (2025-yil 10-son) C.1364-1367
16. Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratlari smart-texnologiyalar asosida shakllantirish metodikasi Farg'ona metodika maktabi (2025-yil 2-son) C.179-185
17. Y.Qipchaqova ''Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'qitishda online Smart texnologiyalardan foydalanish.Farg'ona Davlat Universiteti Gender tengligi tadqiqotlar markazi ''Xotin-qizlarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy hayotidagi faolligini oshirishning gender omillari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami C.173-175
18. Qipchaqova Y.H. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini online Smart texnologiyalar asosida o'qitish ''Inklyuziv transformatsiya sharoitida talabalar ijtimoiy faolligini etnopedagogik manbaalar vositasida shakllantirish tendensiyalari: muammo, yechimlar''Respublika ilmiy-amaliy anjumani (2025-yil,25 oktabr) C.212-214